Mazkur qayta tayyorlash kursining o‘quv dasturi
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Kengashining
2026-yil “28” avgustdagi 12-son qarori
bilan tasdiqlangan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“SUD-SOLIQ EKSPERTIZASI”

fani bo‘yicha dual ta’lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O‘QUV DASTURI

Mutaxassislik – Sud ekspertlik faoliyati

Toshkent – 2026

I. O‘QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA’LIMDAGI O‘RNI

“Sud-soliq ekspertizasi” fani bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bundan keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son, 2026-yil 20-fevraldagi “Nodavlat sud-ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 73-son qarorlariga muvofiq, sud ekspertlarining malakasini oshirishga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlarni qamrab olgan.

II. O‘QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Sud-soliq ekspertizasi” fani bo‘yicha o‘qitishdan **maqsad** - tinglovchilarda sud-ekspertlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyati va huquqiy asoslari, sud-soliq ekspertizasi sohasida chuqur nazariy bilimlar; ekspertiza tadqiqotlarining ilmiy asoslangan uslub va vositalarini, shuningdek sohaga oid innovatsion yondashuv va yechimlarni o‘rganish hamda qo‘llay bilish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, sud ekspertlarida kasbiy bilimlarni chuqur o‘rganish va muntazam takomillashtirib borish, umumiy dunyoqarashni kengaytirish, kasbiy tezkorlikni shakllantirish (ekspertiza tadqiqotlarini darhol o‘tkazishga kirishish, nostandart ekspertiza vaziyatlariga tayyor bo‘lish va h.k.), faoliyati davomida tashabbus ko‘rsatishga va profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga intilishni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

O‘quv fanining asosiy vazifalari:

- sud ekspertlari tomonidan sud-soliq ekspertizasining nazariy asoslarini tizimli ravishda egallashlarini ta’minlash;

- sud-soliq ekspertizasi obyektlarining identifikatsion, diagnostik va situalogik tadqiqotlarining asosiy metodik prinsiplarini o‘rgatish;

- obyektlarning ekspertiza tadqiqotlari metodikasini hamda ekspertning jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatining metodlari bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Shuningdek, sud ekspertlarida jinoyatlarni ochish va tergov qilishda sud-soliq ekspertizasining ekspertizalarning amaliy ahamiyati to‘g‘risidagi ishonchni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar

Umumiy talablar:

- sud ekspertlari konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to‘g‘ri anglashi va qo‘llashni bilishi;

- sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;

- ilmiy – tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatining takomillashi;

- turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi.

Maxsus talablar:

– sud-soliq ekspertizasining asoslari va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

– sud-soliq ekspertizasining umumiy va xususiy nazariyasining asoslari;

– sud-soliq ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishdagi xatolar va ularni aniqlash hamda bartaraf etish yo‘llari;

– sud-soliq ekspertizalarida tabiiy, texnik va boshqa maxsus kurslarning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari;

– sud ekspertiza muassasalarida mavjud sud-soliq ekspertizasining uslubiyoti va texnik-kriminalistik vositalarini bilishi va ulardan foydalana olishi zarur;

– sud ekspertining sud-soliq ekspertizasini o‘tkazishda protsessual qonunchilik normalarini qo‘llash sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash;

– sud-soliq ekspertizasini o‘tkazish, natijalarini baholash va ekspert xulosasini shakllantirish;

– sud-ekspertlik faoliyatiga oid ish hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

– sud ekspertlarning ushbu normalarni qo‘llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi.

“Sud-soliq ekspertizasi” fanidan
MAVZULAR REJASI

T/r	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Shu jumladan

		Ma’ ruza	Seminar	Amaliy (laboratoriya)	Jami o‘ quv soatlari
1.	Sud-soliq ekspertizasining predmeti	2	1	12	**15**
2.	Sud-soliq ekspertizasining tadqiqot obyektlari	2	1	12	**15**
3.	Sud-soliq ekspertizasi hal etadigan masalalar	2	1	12	**15**
4.	Sud-soliq ekspertining vakolatlari	2	1	12	**15**
5.	Sud-soliq ekspertizasining tadqiqot usullari	2	1	12	**15**
6.	Sud-soliq ekspertizasining QQS bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	1	12	**15**
Oraliq nazorat (test)					**2**
7.	Sud-soliq ekspertizasining aksiz solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	1	12	**15**
8.	Sud-soliq ekspertizasining foyda solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	1	14	**17**
9.	Sud-soliq ekspertizasining jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari	4	2	18	**24**
10.	Sud-soliq ekspertizasining ijtimoiy soliq bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	2	16	**20**
11.	Sud-soliq ekspertizasining mol-mulk solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	1	16	**19**
12.	Sud-soliq ekspertizasining yer solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari	2	1	16	**19**
Malakaviy ishini (referatni) tayyorlash					**18**
Malakaviy ishini (referatni) himoya qilish					**18**
	Jami akademik soatlar	**26**	**14**	**164**	**242**

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

1-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining predmeti

“Predmet” tushunchasining mazmuni va huquqiy talqini. Sud-soliq ekspertizasi predmetining shakllanishi. Sud-soliq ekspertizasining predmetini tashkil etuvchi obyektlar. Soliq hisobotlari va deklaratsiyalar. Buxgalteriya hisobi hujjatlari. Moliyaviy operatsiyalar va pul oqimlari. Soliq to‘lovlari hisob-kitobi.

2-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining tadqiqot obyektlari

“Obyekt” tushunchasining umumiy mazmuni. Sud-soliq ekspertizasida obyektlarning o‘rni va ahamiyati. Moliyaviy operatsiyalar va bank hujjatlari. Korxona daromad va xarajatlari. Elektron buxgalteriya tizimlari ma’lumotlari.

Shartnomalar va xo‘jalik bitimlari. Ombor va inventarizatsiya hujjatlari. Soliqdan qochish holatlarini aniqlash.

3-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasi hal etadigan masalalar

Sud-soliq ekspertizasi hal etadigan umumiy masalalar. Soliq hisob-kitoblarining to‘g‘riligini aniqlash. Moliyaviy hujjatlarning ishonchliligini tekshirish. Soliq bazasining to‘liq shakllanganligini baholash. Buxgalteriya hisobidagi xatolarni aniqlash. Xarajatlar va daromadlarning noto‘g‘ri ko‘rsatilishi.

4-Mavzu. Sud-soliq ekspertining vakolatlari

Asosiy vakolatlari. Sud yoki tergov organi bergan savollar doirasida ekspertiza o‘tkazish. Buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarini tahlil qilish. Moliyaviy hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirish. Soliq hisob-kitoblarida xatolar yoki buzilishlarni aniqlash. Daromad va xarajatlar harakatini iqtisodiy jihatdan baholash.

5-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining tadqiqot usullari

“Tadqiqot usuli” atamasining mazmuni. Sud-soliq ekspertizasida usullarning ahamiyati. Hujjatlarni tahlil qilish usuli. Buxgalteriya va soliq hujjatlarini tekshirish. Taqqoslash va iqtisodiy tahlil usullari. Hisob-kitob va matematik usullar. Zamonaviy (raqamli) tadqiqot usullari.

6-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining QQS bo‘yicha xos tadqiqot usullari

QQS tushunchasi va uning soliq tizimidagi o‘rni. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining mohiyati. QS hisoblash va undirish mexanizmi. QQS hisobotlarining tahlili. Soliq zanjiri (sotib olish–sotish operatsiyalari)ni tekshirish. Soliq krediti va soliq majburiyatlarini aniqlash. Hisob-fakturalarni tekshirish. Elektron QQS hisob-kitob tizimi ma’lumotlarini tahlil qilish.

7-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining aksiz solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Aksiz solig‘ining mohiyati. Aksizlanadigan tovarlar turlari. Soliq yukining iqtisodiy ahamiyati. Aksiz hisobi va deklaratsiyalarni tahlil qilish. Ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarini o‘rganish. Aksiz tovarlar aylanmasini nazorat qilish. Ishlab chiqarish hisobotlarini tekshirish. Ombor hisobi va chiqim hujjatlarini solishtirish. Aksiz tovarlarini noqonuniy aylantirish.

8-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining foyda solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Foyda solig‘ining mohiyati. Soliq solinadigan baza va uning shakllanishi. Korxonalar moliyaviy faoliyatidagi o‘rni. Soliq bazasini aniqlash jarayoni. Shartnomalar va birlamchi hujjatlarni o‘rganish. Daromadni yashirish yoki kamaytirib ko‘rsatish. Asossiz xarajatlarni kiritish. Soliq bazasini sun’iy ravishda

kamaytirish. Foyda solig‘i bazasini tiklash. Elektron hisobot tizimlari orqali tekshiruv. Raqamli ma’lumotlar tahlili.

9-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining jismoniy shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Jismoniy shaxslar daromad solig‘i tushunchasi va mohiyati. Sud-soliq ekspertizasida daromad solig‘i bo‘yicha tekshiruv xususiyatlari. Daromad manbalarini aniqlash. Ish haqi va boshqa daromadlarning hisobini tekshirish. Hujjatlarni tahlil qilish usullari. Ish haqi qaydnomalari va mehnat shartnomalarini tekshirish. Daromad va soliq summalarini qayta hisoblash. Turli manbalardan olingan daromadlarni taqqoslash. Soliq bazasini tiklash.

10-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining ijtimoiy soliq bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Ijtimoiy soliq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy soliqning huquqiy asoslari. Soliqning maqsadi va vazifalari. Budjet va ijtimoiy fondlarga ta’siri. Ish haqi fondi va soliq hisob-kitobini tahlil qilish. Soliq agentlari tomonidan hisoblangan summalarni tekshirish. Mehnat shartnomalari va ish haqi qaydnomalarini tekshirish. Norasmiy to‘lovlar va “konvert” ish haqi.

11-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining mol-mulk solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Mol-mulk solig‘i tushunchasi va uning mohiyati. Mol-mulk solig‘ining huquqiy asoslari. Soliq solinadigan obyektlar. Soliqning budjet daromadlaridagi o‘rni. Ko‘chmas va ko‘char mulkni aniqlash. Soliq hisob-kitobining to‘g‘riligini tekshirish. Mol-mulkni baholash ma’lumotlarini tahlil qilish. Kadastr hujjatlari va ro‘yxatga olish ma’lumotlarini tekshirish. Moliyaviy hisobotlar va soliq deklaratsiyalarini solishtirish. Mulkni sotib olish-sotish shartnomalarini o‘rganish.

12-Mavzu. Sud-soliq ekspertizasining yer solig‘i bo‘yicha xos tadqiqot usullari

Yer solig‘ining huquqiy asoslari. Yer resurslaridan foydalanishning soliq jihati. Yer uchastkalarini ro‘yxatga olish ma’lumotlarini tahlil qilish. Soliq hisob-kitobining to‘g‘riligini tekshirish. Yer maydoni va foydalanish maqsadining mosligini aniqlash. Yer solig‘i bo‘yicha buzilishlarni aniqlash usullari. Iqtisodiy hisob-kitob va taqqoslash usullari.

IV. MA’RUZA VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida tinglovchilar o‘z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo‘yicha o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalari,

ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqea-hodisalari bilan bog‘lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar davomida jahonda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar bo‘yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri, aniq javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

V. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

O‘quv dasturining nazariy qismi Institutda, amaliy qismi esa X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi “Sud-iqtisodiy ekspertizasi bo‘limi” maxsus kabinetlari va tadqiqot laboratoriyalarida, tashqari joyda, ekspertiza tayinlangan ish bo‘yicha amaldagi obyektlarida hamda boshqa joylarda o‘tkazilishi mumkin.

Mashg‘ulotda amaliy vazifalar muhokama etiladi va sud-soliq ekspertizasi bo‘yicha ekspert xulosalari mustaqil tuziladi.

VI. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta’lim jarayonida sud eksperti o‘quv dasturida belgilangan masalalarni o‘rganishi uchun tavsiya qilingan adabiyotlar sud-iqtisodiy ekspertizasi bo‘limining ekspertlik amaliyoti bilan tanishishi hamda kamida 5ta ekspert xulosasi tayyorlab taqdim qilishi zarur.

O‘quv kursi bo‘yicha o‘quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o‘qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta’lim uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta’limda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

– maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya qilinadigan mavzular ro‘yxati:

Sud-soliq ekspertizasining tushunchasi, maqsadi va vazifalari.

Sud-soliq ekspertizasining huquqiy asoslari.

Soliq huquqbuzarliklarini aniqlashda sud ekspertizasining o‘rni.

Sud-soliq ekspertizasining boshqa iqtisodiy ekspertizalar bilan aloqasi.

Soliqdan qochish holatlarini aniqlashda ekspertiza usullari.

Yuridik shaxslarda soliq hisobini tekshirishning ekspert usullari.

QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) bo‘yicha huquqbuzarliklarni aniqlash.

Foyda solig‘i bo‘yicha noto‘g‘ri hisob-kitoblarni ekspertiza qilish.

Naqd pul aylanmasi va yashirin daromadlarni aniqlash metodikasi.

VII. REFERAT TAYYORLASH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

O‘quv kursining har bir bo‘limi yakunida tinglovchi mutaxassislik doirasida tanlangan mavzu bo‘yicha malakaviy ishini (referatni) himoya qiladi. Referat kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak.

Malakaviy ish (referat) yozilishida qo‘yiladigan texnik talablar:

- 15–20 bet hajmdan kam bo‘lmasligi;
- Times New Roman, 14 shriftda;
- 1.5 intervalda, har bir bet yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo‘lishi;
- matnning har bir qatorida so‘zlar ko‘chirilmasdan tugallangan bo‘lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar malakaviy ishini (referatni) umumiy hajmiga kirmaydi.

Tinglovchi tomonidan referat uchun amaliy mashg‘ulotlari olib borilayotgan tashkilotdan biriktirilgan amaliyot rahbarlaridan tashqi taqriz olinishi lozim.

Malakaviy ish (referat) tinglovchi tomonidan shaxsan tayyorlanishi shart. Tinglovchi referatni yozishda ilmiy izlanishlar olib borish etikasiga qat’iy rioya etishi, jumladan plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek soxta iqtiboslar keltirishga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Malakaviy ishda (referat) qog‘oz yoki elektron ko‘rinishda nashr qilingan o‘zga matndan olingan manbaaga hech qanday havola qilmagan holda ishlatish yoki olingan manbaaga havola qilingan bo‘lsada, lekin o‘zlashtirishlarning hajmi va xususiyati ishning mustaqil yozilganligiga shubha uyg‘otadigan darajada o‘zlashtirilgan bo‘lsa plagiat deb topiladi. Bunday vaziyatda malakaviy ishga (referat) 0 (nol) ball bilan baholanadi.

Elektron portfolio ko‘rsatkichlari va onlayn test sinovlari natijalari asosida tinglovchilarga malakaviy ishini (referatni) himoya qilishga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi kurs yakuni bo‘yicha yakuniy nazoratni o‘tkazuvchi komissiya a’zolari tomonidan referat mavzusining dolzarbligi, referatni yoritishda tinglovchining mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi, tinglovchining referat himoyasiga tayyorligi, xulosa va tavsiyalar asoslanganligi, referatda adabiyotlardan foydalanilganligi kabi mezonlarga asosan 100 ballik tizim asosida butun sonlar bilan baholanadi. Referat himoyasi uchun har bir tinglovchiga 10-15 daqiqa vaqt beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi bo‘yicha to‘plangan ball belgilangan umumiy ballning 56 foizidan ortiq bo‘lganda tinglovchi “qoniqarli” baholangan deb hisoblanadi. Umumiy ballning 55 foizi va undan kam ball olgan tinglovchiga 3 kun ichida qayta himoyaga kirishiga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasida qoniqarsiz baho olgan tinglovchilar kurs yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy nazorat imtihoniga kiritilmaydi.

VIII. O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV VA METODIK MATERIALLAR

O‘quv jarayonini tashkil etish:

O‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta’lim hamda o‘quv mashg‘ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamoa bo‘lib ishlash” hamda bilim va ko‘nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O‘quv materiallari:

ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo‘yicha o‘quv qo‘lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.z).

O‘quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’minoti:

shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

IX. YAKUNIY NAZORAT

O‘quv kursining barcha mavzulari bo‘yicha yakuniy nazorat test hamda suhbat shaklida o‘tkaziladi va baholanadi.

X. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

ASOSIY ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023;

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi 2010-yil 1 -iyun qonuni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – 22–son. – 173-m.;

1999-y. 11-sentabrida kuchga kirgan “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 24.10.2025-y., 03/25/1092/0976-son);

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son);

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son);

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-m. (Ushbu Farmon “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 8-fevraldagi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 270-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-son Qarori;

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-fevraldagi “Nodavlat sud-ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 73-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) 30.12.2019-yil.;

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, (Yangi tahriri) 279-I-son, 30.08.1996-yil.;

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni, 474-I-son, 29.08.1997-yil.;

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-249-son, 01.06.2010-yil.;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 3221-son, 24.02.2020-yil.;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikka oid qonunchilikning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori, 08-son, 31.05.2013-yil.;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining “Soliq auditini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizomi, 3251-son, 30.06.2020-yil.;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, o‘tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida”gi qarori, 24-son, 12.12.2008-yil.;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan ekspertizaga oid qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori, 261-son, 20.06.2014-yil.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

Timchenko V.A. Sudebnaya nalogovaya ekspertiza: Uchebnoe posobie – Nijniy Novgorod: Izd-vo Nijegorodskogo gosuniversiteta, 2018. – 116 s.;

Golikova V.V. Sudebnaya nalogovaya ekspertiza v ugolovnom sudoproizvodstve/M./Vestnik Universiteta imeni O. Ye. Kutafina, 2019;

Borisov A.N. Kommentariy k polojeniyam UPK RF po provedeniyu sudebno-nalogovых ekspertiz, reviziy i dokumentalnых proverok / A. N. Borisov. M.: Yustiцinform, 2004. 223 s.;

Brыzgalin A.V. Yasnost nalogovogo zakona ili vse somneniya v polzu nalogoplatelщikov / A.V. Brыzgalin // Nalogovыy vestnik. 1999. № 9. S. 13-18.;

Voinov V.V. Sudba pravovых poziцiy Vыsshego Arbitrajnogo Suda RF po nalogovым sporam / V.V. Voinov // Nalogoved. 2016. №1. S. 39-45.;

Volvach D.V. Metodы opredeleniya цen dlya цeley nalogooblojeniya / D.V. Volvach // Nalogovaya politika i praktika. 2014. № 4. S. 16-19.;

Demin A.V. Prinцip opredelennosti nalogooblojeniya :monografiya / A.V. Demin. M.: Statut, 2015. 368 s.;

Dmitrienko T.M. Sudebnaya (pravovaya) buxgalteriya: uchebnik / T.M. Dmitrienko, S.G. Chaadaev. M.: Prospekt, 1999. 336 s.;

Zinin A.M. Sudebnaya ekspertiza: uchebnik / A.M. Zinin, N.P. Maylis. M.: Pravo i zakon; Yurayt-Izdat, 2002. 320 s.;

Rossiyskaya Ye.R. Nastolnaya kniga sudi: sudebnaya ekspertiza / Ye.I. Rossiyskaya, Ye.I. Galyashina. M.: Prospekt, 2016. 464 s.;

Sudebnaya ekspertiza: tipichnые oshibki / pod red. d.yu.n., prof. Ye.R. Rossiyskoy. M.: Prospekt, 2012. 544 s.;

“Sud-buxgalteriya ekspertizasi”, ekspertlar uchun uslubiy tavsiyalar, 2016-yil.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

www.bilim.uz;

http:// lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);

http:// www.tsul.uz (Toshkent davlat yuridik universiteti);

www.kupidom.com, www.makler.uz, www.shahar.uz, www.kapitalipoteka.uz, www.olx.uz, www.uybor.uz internet saytlari.